



2020- yil yanvar-sentabr oylari uchun Andijon viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Andijon viloyatida jami **3143,7** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan **105,3 %** ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.




Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **226,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish surati **188,4 %** ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **7,2 %** ni tashkil etdi.




Bajarilgan qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlarning ulushi va o'sish sur'ati, % da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Andijon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **35,1 %** i yoki 2019- yilning yanvar-sentyabr oyiga nisbatan **86,0 %**) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2019- yil yanvar-sentabr
- 2020- yil yanvar-sentabr


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **67,2 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,5 %** punktga ka'maydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **100,6 %** ni tashkil etgan holda **2111,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **25,6 %** ni tashkil etdi yoki **806,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **105,2 %** ni tashkil etdi.*



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **231,9** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **118,7 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2911,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **103,6 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari 2020- yil yanvar- sentabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Viloyat bo'yicha:	3143,7	231,9	7,4	2911,8	92,6
Andijon sh.	1030,2	41,9	4,1	988,3	95,9
Xonobod sh.	88,9	0,0	0,0	88,9	100,0
tumanlar :					
Andijon	470,3	27,7	5,9	442,6	94,1
Asaka	136,6	10,1	7,4	126,5	92,6
Baliqchi	81,3	10,1	12,4	71,2	87,6
Bo'ston	111,3	3,3	2,9	108,0	97,1
Buloqbo'shi	51,5	10,1	19,6	41,4	80,4
Jalaquduq	138,7	33,2	24,0	105,5	76,0
Izboskan	99,8	10,1	10,1	89,7	89,9
Ulug`nor	62,4	32,0	51,3	30,4	48,7
Marxamat	144,1	10,1	7,0	134,1	93,0
Oltinko'l	122,7	3,0	2,5	119,7	97,5
Paxtaobod	148,5	10,1	6,8	138,4	93,2
Xo`jaobod	89,2	10,0	11,3	79,1	88,7
Shaxrixon	242,9	10,0	4,1	232,9	95,9
Qo`rg`ontepa	125,2	10,1	8,0	115,1	92,0

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,% da

2019- yil yanvar-sentabr

17,6



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

9,3



Fuqarolik obyektlarini qurish

73,1



Bino va inshootlarni qurish

2020- yil yanvar-sentabr

12,4



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

12,5



Fuqarolik obyektlarini qurish

75,1



Bino va inshootlarni qurish

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **5,4 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,4 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **7,6 %** punktga ka'mayib, **60,5 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,2 %** punktga ko'paydi, **34,1 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **15,1 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **7,0 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **84,9 %** (**6,9 %** punktga ka'maydi).






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan **5,4 %** punktga ka'maydi va **10,4 %** ni tashkil etdi. Qolgan **89,6 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **8,8 %** punktga ko'paydi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-sentabr oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Andijon sh.
1030,2

2

SHahrihon
242,9

1

Andijon
470,3

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Baliqchi
81,3

2

Ulug'nor
62,4

1

Buloqbooshi
51,5

3





Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: S.Hadjaev

Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37